

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



60410100 – “BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni (abituriyentlarni) sirtqi ta’lim shakliga tabaqalashtirilgan to‘lov kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha suhbat o‘tkazish va baholash

DASTURI

SAMARQAND -2023

Tuzuvchilar:	K.B.Urazov – SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, i.f.d. S.N.Tashnazarov – SamISI “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor U.A.Shirinov – SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Taqrizchilar:	A.Aliqulov – Samarqand davlat veterinariya medisinasи, chорвачилик ва biotexnologiyalar universiteti “Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlik va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, i.f.d. (Turdosh OTM) R.A.Abdullayev – O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi Samarqand viloyati filiali raisi (kadrlar buyurtmachisi), i.f.n., professor S.Isanov - “Minimaks” MChJ (buxgalteriya xizmati) bosh buxgalter (kadrlar buyurtmachisi)

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan tasdiqlangan (2023 yil “30” avgustdagи 1-sonli majlis bayoni).

KIRISH

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyunda “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-sonli farmoyishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 yil 4-noyabrda “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhabat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqgan holda ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda 2021 yildan e’tiboran aksiyadorlik jamiyatlari hamda yirik soliq to‘lovchi hisoblangan korxonalarga MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish va taqdim etishga o‘tkazish vazifasi yuklatildi. 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”¹ maqsadining qo‘yilishi ham tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanimish hamda uning hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida aniq vazifalarni belgilab berdi. Shu bilan birga moliyaviy hisobotning elementlari aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash, buxgalteriya yozuvlari va ishlanmalarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan formatini ishlab chiqish masalalari dolzarb hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishini ta’minalash korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditini hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 24 fevraldagи PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 4 avgustdagи PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda buxgalteriya hisobi va audit fani muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizni yaqin besh yilda jadal rivojlantirishga qaratilgan mazkur davlat dasturlarida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash o‘ta muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagи PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tabirlar to‘g‘risida”gi Qarorida “2021 yildan boshlab hisob yuritish va 2021 yil yakunlaridan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

boshlab moliyaviy hisobotni tayyorlash faqat MHXS asosida amalga oshirilishi hamda buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganlik to‘g‘risida hujjatga yoxud xalqaro buxgalter sertifikatiga (ASSA va ASSA DipIFR, SRA, CIPA) ega bo‘lgan kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan xodimlar sonini bosqichma-bosqich ta‘minlash” vazifasining qo‘yilishi ham MHXSlarni mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan joriy etish hamda kadrlar tayyorlash masalasini davr talabiga ko‘tarish dolzARB masalalar hisoblanadi.

60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga qo‘yiladigan talablar

Hisob hamda xo‘jalik hisobi turlari, buxgalteriya hisobining predmeti, buxgalteriya hisobining usullari, buxgalteriya balansi, hujjatlashtirish va inventarizasiya, baholash va kalkulyasiya, buxgalteriya hisobining schyotlari va ikki yoklama yozuv, asosiy xo‘jalik jarayonlari hisobi, buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari, buxgalteriya hisobini tashkil etish, xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari, buxgalteriya hisobining obyektlari va subyektlari, pul mablag‘lari va valyuta operasiyalari hisobi, mehnat xaqini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, investisiyalar hisobi, asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, hisobotlarni tuzish va taqdim etish ***xaqida tasavvurga va amaliy kompetensiyalarga ega bo‘lishi;***

- xo‘jalik operasiyalarini qayd etish va hisob registrlarida aks ettirish tartibi hamda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishni, samarali boshqaruq qarorlarini qabul qilish uchun ichki hisob va hisobot ma’lumotlarni kayta ishlashni, ma’lumotlarni tahlil etish va ularning o‘zgarishi ustidan nazorat qilish uslublarini qo‘llashni, buxgalteriya hisobi va hisobotini rivojlanishi tendensiylarini aniqlash maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishni, buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha me’yoriy- huquqiy asoslarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish hamda yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash, uzlusiz ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtirop etish, ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, kasb- hunar ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash hamda uni tadbiq etish, o‘z bilimi va ko‘nikmasini egallagan lavozimida professional darajada qo‘llashga erishish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;***

- dastlabki va yig‘ma hujjatlarni tuzish, inventarizasiya o‘tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish, buxgalteriya hisobotlarini tuzish, mehnat va ish haqi hisoblash, tavor moddiy zaxiralar hisobi va ularni baxolash, asosiy

vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi va ularga eskirish hisoblash, xususiy kapital va yakuniy moliyaviy natijalarni aniklash, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish ***malakalariga ega bulishi kerak.***

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha savollar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlari vazirlari kengashi yig'ilishi rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.
3. 2022 yil 21-iyul kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagagi PQ-4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori mohiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagagi PQ-5210 sonli "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946 sonli "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori moxiyati.
7. O'zbekistonda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari.
8. Buxgalteriya hisobi, moliya va soliq sohasida konsalting xizmatlarini ko'rsatish.
9. 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yangi qonundagi asosiy o'zgarishlar.
10. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solishning mohiyati va ahamiyati.
11. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi subyektlariga milliy hisob tizimi isloh qilishning zarurati.
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buxgalteriya hisobi islohotini amalga oshirishdagi o'rni.
13. Iqtisodiy subyektlar moliyaviy hisobotini MHXS asosida shakllantirish.
14. Amaldagi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash asosida amaliyotga joriy qilishning ahamiyati.
15. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish tizimiga o'zgarishlar kiritishning mohiyati.
16. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarda buxgalteriya hisobining o'mi.
17. Buxgalteriya hisobi schetlar rejasini modernizasiya qilishning ahamiyati.
18. Buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibining isloh etilishi.
19. Buxgalteriya hisobi sohasida islohotining asosiy maqsadi.
20. Juhon amaliyotida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning umumqabul qilingan tizimlarini uyg'unlashtirish masalalari.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 24 iyun kuni “BRIKS plyus” formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo‘yicha uchrashuvlagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

22. 2022 yil 21 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

23. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy vazifalar.

24. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil qilish, ularni zarur infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

25. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-mart kuni makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, biznesni qo‘sishchasi qo’llab-quvvatlash masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

26. Buxgalteriya axboroti va uning ahamiyati

27. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya va diversifikasiya qilishda buxgalteriya hisobining o‘rni.

28. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

29. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasi ulushini ko‘paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

30. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

31. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tizimini zamonaviy dasturiy ta’motlarining qo’llash asosida modernizasiya qilish ahamiyati.

32. Buxgalteriya hisobi tizimi modernizasiya qilishning ahamiyati.

33. Buxgalteriya hisobini isloq qilish.

34. Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarining isloq etilishi.

35. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqligi.

36. Moliyaviy hisobtlarni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari bo‘yicha islohotlar.

37. Bugungi kundagi soliq islohotlari.

38. Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni moslashtirish bo‘yicha islohotlar.

39. MHXSni joriy etishda Moliya vazirligining o‘rni va ahamiyati.

40. MHXSni joriy etishda O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assosiasiyasining o‘rni va ahamiyati.

41. Auditning xalqaro standartlarini joriy etishda O‘zbekiston auditorlar palatasining o‘rni va ahamiyati.

42. Mavjud buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga qo’llash asosida modernizasiya qilishning ahamiyati.

43. Buxgalteriya hisobining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini izohlang.

44. Buxgalteriya hisobini kompyuter vositalarini qo’llash asosida modernizasiya qilish va boshqalar.

45. «Raqamli idora» loyihasi doirasida davlat organlarida aholi bilan hujjat almashish va ish yuritishning 90 foizdan ortig‘ini raqamlashtirish orqali ma’muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatashtirishda tizimiga qanday vazifalar belgilangan?

46. Buxgalteriya hisobining yangi global standartlarga o‘tishining ahamiyati.

47. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish ulushini ko‘paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

48. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

49. Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni moslashtirish.

50. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishda subyekt rahbarining roli.

60410100-“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi bo‘yicha savollar

1. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida buxgalteriya hisobining xo‘jalikni yuritish va boshqarishda tutgan o‘rni

2. Buxgalteriya xodimlari etikasi.

3. O‘zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobini isloq qilishning asosiy yo‘nalishlari.

4. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo‘yicha umumdavlat va korxonalar siyosatining asosiy jihatlari.

5. Xo‘jalik hisobining turlari, mohiyati va farqli jihatlari

6. Buxgalteriya moliyaviy hisobining mohiyati va farqli jihatlari

7. Buxgalteriya boshqaruv hisobi mohiyati va farqli jihatlari

10. Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

11. Buxgalteriya hisobining subyektlari.

12. Buxgalteriya hisobining obyektlari va ularning tarmoqlar xususiyati va mulkchilikning shakllariga bog‘liqligi.

13. Buxgalteriya hisobining metodi va tadqiqot usullari.

14. Buxgalteriya hisobining fundamental tamoyillari va ularni qo‘llash

15. Buxgalteriya hisobining metodologik tamoyillari va ularni qo‘llash

16. Buxgalteriya hisobining sifat tamoyillari va ularni qo‘llash.

17. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida buxgalteriya hisobining maqsadi, vazifalari va sohadagi islohotlar.

18. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tizimi

19. Korxonalar mablag‘larining tasnifi va tavsifi

20. Korxonalar mablag‘larini tashkil topish manbalari.

21. Buxgalteriya balansining mohiyati, ahamiyati va tarkibiy tuzilishi.

22. Buxgalteriya balansi turlari va ular mohiyati

23. Xo‘jalik muomalalari va ular ta’sirida balansda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar.

24. Buxgalteriya schyotlarining mazmuni va tuzilishi, ularning buxgalteriya balansi bilan bog‘liqligi.

25. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya balansi va xorijiy davlatlar korxonalari buxgalteriya balansi o‘xshashliklari hamda farqlari.

26. Buxgalteriya hisobi schyotlari tasnifi va tavsifi

27. Sintetik va analitik schyotlar, ularning tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligi.

29. Buxgalteriya hisobining schyotlari rejasi (21-son BHMS)

30. Schyotlarga ikki yoqlama yozuv va uning asoslanishi nazorat qilish xususiyatlari.

31. Joriy buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish tartibi.

32. Baholash tushunchalari, ularning buxgalteriya hisobida qo‘llanilishi.

33. Baholash turlarining mohiyati va buxgalteriya hisobida qo‘llanilishi

34. Tannarx va va uni kalkulyasiya qilish

35. Tannarx tarkibi va uni shakllantirish

36. Xo‘jalik jarayonlarining asosiy ko‘rsatkichlari va ularning ahamiyati.

37. Biznes jarayonlari hisobi.

38. Ta’midot jarayonining hisobi.

39. Tovar-moddiy zahiralarni baholash usullari

40. Transport-tayyorlov xarajatlari va ularni taqsimlash usullari.

41. Ishlab chiqarish jarayonining hisobi.

42. Kalkulyasiya schyotlarining ishlab chiqarilayotgan mahsulot, bajarilayotgan ish va xizmatlar tannarxini aniqlashdagi o‘rni.

43. Ishlab chiqarish jarayoni sintetik va analitik hisobini tashkil etish.

44. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlash va ularning ombor hisobi.

45. Sotish jarayonining hisobi.

46. Sotishdan olingan daromadlarni tan olish va hisobi

47. Sotish jarayoni xarajatlari.

48. Davr xarajatlari hisobi.

49. Hujjatlar va hujjatlashtirish, ularning mohiyati va tasnifi

50. Buxgalteriya hisobida hujjatlarning roli va ahamiyati.

51. Xo‘jalik muomalalarini dastlabki va yig‘ma hujjatlashtirish tartibi.

52. Korxonalarda hujjatlarning aylanishini tashkil etish.

53. Inventarizasiya to‘g‘risida tushuncha, uning ahamiyati va turlari.

54. Xo‘jalik subyektlarida inventarizasiya o‘tkazishni tashkil qilish tartibi.

55. Inventarizasiya natijalarini rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi.

56. Hisob registrlarining mohiyati, tasnifi va tavsifi.

57. Buxgalteriya hisobining shaklli, ularning mohiyati va tarixiy rivojlanishi.

58. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli

59. Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli

60. Buxgalteriya hisobining Bosh jurnal shakli
61. Buxgalteriya hisobining informasion texnologiyalarga asoslangan shakli.
62. Buxgalteriya hisobining ixchamlashtirilgan shakli.
63. Buxgalteriya hisobotining mohiyati va ahamiyati.
64. Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining tarkibiy tuzilishi.
65. Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi
66. Moliyaviy hisobot mazmuni va tarkibi
67. Buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish tartibi
68. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi
69. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim qilish tartibi
70. Yig‘ma buxgalteriya hisoboti.
71. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari (BHMS asosida).
72. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari mohiyati va qo‘llanilishi
73. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va ahamiyati.
74. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha me’yoriy huquqiy asoslar.
75. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish shakllari.
76. Kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro va milliy standartlar asosida tashkil etish.
77. Korxona hisob siyosati
78. Buxgalteriya hisobiga rahbarlik qilish.
79. Korxona buxgalteriyasida ishni tashkil qilish.
80. Xo‘jalik subyektlarida bosh buxgalterning vazifalari, huquqlari va majburiyatlar.
81. Tovar-moddiy zahiralar hisobi
82. Asosiy vositalar hisobi
83. Investisiyalar hisobi
84. Tayyor mahsulotlar va ularning sotilishi hisobi
85. Nomoddiy aktivlar hisobi
86. Pul mablag‘lari hisobi
87. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobi
88. Xususiy kapital hisobi
89. Debitorlik qarzlari hisobi
90. Majburiyatlar hisobi
91. Xarajatlarni buxgalteriya hisobi maqsadlarida tasniflanishi (bevosita va bilvosita xarajatlar, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar)
92. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari hisobi (UIChXlarini taqsimlash usullari)
93. Buyurtmali kalkulyasiyaning mohiyati, qo‘llanilishi va usullari
94. Jarayonli kalkulyasiyaning mohiyati, qo‘llaniilishi va usullari (FIFO va o‘rtacha salmoqli usul)
95. Abzopshin va direkt kosting usullarida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish

96. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) mohiyati va qo‘llanilishi

97. MHXSlari asosida moliyaviy hisobot

BAHOLASH ME’ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan savollar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat jarayonida ***olish mumkin bo‘lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.***

Suhbat natijalari bo‘yicha to‘plagan umumiylar ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A’lo	86,0-100
2	Yaxshi	71,0-85,0
3	Qoniqarli	56,0-70,0
4	Qoniqarsiz	0-55,0

Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a’zolari tomonidan to‘ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘i to‘ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a’zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi ***55 balldan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.***

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (2000 yil 26 may), Toshkent, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2016 yil 13 aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2019 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”, PQ-615-son, 2007 yil 4 aprel
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4720-son, 2015 yil 24 aprel.
7. 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946-sonli “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
8. 2020 yil 24 fevralda PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”, 207-son, 2015 yil 28 iyul.
10. “Mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotishga doir xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida” Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi Qarori (54-son). Nizomga o‘zgartirishlar va qo‘sishimchalar O‘zR V.Mning 2003 yil 15 oktyabridagi 444 - sonli qarori
11. Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Korxonalarda ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom”, 215 – son, 2007 yil 16 oktyabr.
12. “Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2007 yil 15 iyundagi 65-sonli buyrug‘i
13. Moliyaviy audit andozalari. Soliqlar va bojxona xabarları, 1997 yil 36-51 va 1998 yil, 1-35 sonlar.
14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. -“Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 yanvar.
15. Do‘stmurodov R.D. Audit asoslari. Darslik. “O‘ME” DIN. T-2003

16. Ibragimov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -440b.
17. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020, 564 bet.
18. Toshmatov N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. 376 bet.
19. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurkhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. T.:–“Sano-standart” nashriyoti, 2019. 560 bet
20. Hasanov B.A., Hashimov A.A., Muhametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- T.: ”Iqtisodiyot dunyosi”, 2021. 992 bet
21. Urazov K.B. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 408 bet
22. Abdullayev R.A., Urazov K.B. Osnovы buxgalterskogo uchytota. Uchebnoye posobiye. SamIES, 2021. 168s
23. Pardayev A., Pardayeva A. “Boshqaruv hisobi” T.: moliya-iqtisod. 2020 yil 510 b.
24. S.N.Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Toshkent, Iqtisod-moliya nashriyoti, 2019, 584-b. (<https://www.academia.edu> saytiga joylashtirilgan)

Qo‘srimcha adabiyotlar

25. Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 2016. 752 p.
26. Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective. Irwin. USA. 1996. 339-340-b. Accounting Principles: A Business Perspective Paperback – February 16, 2018.
27. Lanny G. Chasteen, Richard E. Flaherty, Melvin C. O’Connor. Intermediate Accounting. Irwin McGraw Hill, 1998. 1284 p.
28. Alexander, David, Nobes, Christopher, Financial accounting : an international introduction / David Alexander and Christopher Nobes ; with an appendix on Double-entry Bookkeeping by Anne Ullathorne. Description: Sixth edition. | Harlow, England ; New York : Pearson, [2016] Identifiers: ISBN 9781292102993 | ISBN 9781292103013 (pdf)
29. Frank Wood. Business Accounting 1-4. Vol 2 – 0273 693107. <http://www.mim.ac.mw/books/Frank%20Wood's%20Business%20Accounting%201.pdf>
30. Finansovyuy uchet 1 Uchebnoye posobiye. http://www.femida-audit.com/docs/FA1_Supplement_ru.pdf
31. ACCA V ramkax Diploma ASSA «Finansы i Upravleniye Biznesom» «Finansovaya Otchetnost» Uchebnik P.2 KAPLAN PUBLISHING © Kaplan Financial Limited, 2020.

Internet saytlari

32. <http://president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.

33. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
34. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
35. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
36. <http://www.deloitte.com> – Deloitte & Touche auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
37. <http://www.pwc.com>. – Pricewaterhouse Coopers auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
38. <http://www.kpmg.com> – KPMG auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
39. <http://www.ey.com> – Ernst & Young auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
40. <https://lex.uz/docs/264422>
41. www.tfi.uz
42. www.ziyonet.uz
43. www.norma.uz
44. www.lex.uz
45. www.gov.uz
46. www.mf.uz